

## BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT FANI O‘QITUVCHILARIGA YOG‘OCH O‘YMAKORLIGINI O‘RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSLAR

**Axmedov Muxomod-Umar Baxridinovich**

Nizomiy nomidagi TDPU “Tasviriy san’at” kafedrasida dotsenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14497234>

**Annotatsiya.** Maqolada amaliy san’atning, xususan yog‘och o‘ymakorligining tarixiy rivojlanishi, buyuk bobolarimizning yoshlarga bilim berish va hunar o‘rgatishga bo‘lgan qarashlari, yoshlarga odob-axloq qoidalarini o‘rgatish, ularni ilm-fan sirlarini egallashga jalb etish, savob ishlarni bajarishga yo‘naltirish, ijod bilan shug‘ullanishga da‘vat etishga qaratilgan asarlaridagi e’tibor, shuningdek, bugungi kunda mazkur tadbirlarni tashkil etishning pedagogik asoslari xususida bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim-tarbiya, odob-axloq, asbob-uskunalar, jihoz, rangtasvir, musavvirlik, miniatyura, haykaltaroshlik, ganch, yog‘och, metall, suyak, tosh, dizayn, foto san’ati, ekobana, mo‘jaz miniatyura san’ati, gravyura, o‘quv-metodik, moddiy-texnik.

### PEDAGOGICAL BASIS OF TEACHING WOOD CARVING TO FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS

**Abstract.** The article describes the historical development of applied arts, in particular wood carving, the views of our great-grandfathers on educating young people and teaching them crafts, the attention paid in their works to teaching young people the rules of etiquette, attracting them to master the secrets of science, directing them to perform meritorious deeds, and encouraging them to engage in creativity, as well as the pedagogical foundations of organizing these events today.

**Keywords:** education, ethics, equipment, equipment, painting, painting, miniature, sculpture, ganch, wood, metal, bone, stone, design, photo art, eco-bana, miniature art, engraving, educational and methodological, material and technical.

### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РЕЗЬБЫ ПО ДЕРЕВУ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

**Аннотация** В статье историческое развитие практического искусства, особенно резьбы по дереву, взгляды наших прадедов на воспитание и воспитание молодежи, обучение молодежи правилам этикета, привлечение их к освоению секретов науки. внимание в его произведениях направлено на руководство выполнением похвальных поступков, поощрение творчества, а также педагогические основы организации этих мероприятий сегодня. заявил.

**Ключевые слова:** образование, этикет, техника, оборудование, живопись, живопись, миниатюра, скульптура, дерево, металл, кость, камень, дизайн, фотоискусство, экобана, чудесное искусство миниатюры, гравюра, учебно-методическое, материально-техническое.

Respublikamizning mustaqillikka erishishi tufayli ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilishga, jumladan, yoshlarni ijodiy, mustaqil fikrlay oladigan barkamol insonlar qilib shakllantiradigan bilimlar mazmunini tanlab olishga, o‘quv muassasalarida mashg‘ulotlarning samarali usullari va shakllarini tanlab olishga jiddiy e’tibor berilmoqda.

«Umumiy oʻrta taʼlim» bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik faoliyati va amaliy tajriba koʻnikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yoʻnaltirishga va taʼlimning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi. Bolalarning qobiliyatini, isteʼdodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi mumkin».

Yosh avlodga taʼlim-tarbiya berish, ularni kelajak hayotga tayyorlash, ijodiy faoliyatga, odob-axloqli boʻlishga, ilm olishga, foydali yumushlar bilan shugʻullanishga yoʻllash ishlari Sharq xalqlarining qon-qoniga singib ketgan noyob amallardandir. Taʼlim-tarbiya ishlarining qonun bilan himoyalaniishi, barcha tashkiliy, rahbarlik va taʼminot ishlarining davlat tasarrufida boʻlishi, davlatning, xalqning oʻz kelajagi uchun jiddiy qaygʻurishidan dalolat beradi.

Sharq xalqlarining uzoq tarixida, hatto odamzod paydo boʻlishining boshlangʻich davrlarida, masalan, ibtidoiy jamoa tuzumida, quldorlik jamiyati tuzumida ham yosh bolalarning, kelajak avlodning tarbiyasiga eʼtibor berib kelingan. Ibtidoiy jamoa tuzumida dastlab yogʻochlardan ayrilar, oʻtkir uchli nayzalar yasash va ular bilan ov qilish oʻrgatilgan boʻlsa, keyinchalik yogʻochlardan turli tosh, jez, suyak kabilarga dastalar oʻrnatish, ular bilan mehnat qilish, ov qilish, turli xil moslamalar yasash oʻrgatilgan. Quldorlik tuzumiga kelib, yogʻoch asboblari, dastalar, moslamalar yasash takomillashdi, oʻziga xos sifat, jilo beradigan qilib, qoʻllanilish maqsadiga qarab, oʻz vazifasini aniq bajara oladigan qilib yasaldi va bu ishlar farzandlarga, shogirdlarga oʻrgatib borildi. Yogʻochdan uy-roʻzgʻor buyumlari: chelaklar, kosalar, laganlar, togʻoralari, bochkalar, suvdonlar, qoshiqlar, turli asboblari uchun dastalar, gʻildiraklar, omoch qismlari; harbiy maqsadlar uchun ashyolar: nayzalar va oʻqlar dastalari, egarlar, devorlarni buzish moslamalari, manjanaqlar, narvonlar, koʻpriklar, dekchalar, safar anjomlari; qurilish maqsadlari uchun ashyolar: ustunlar, toʻsinlar, eshiklar, panjaralar, darvozalar, kursilar, tokchalar, aravalar, taxtiravonlar va boshqa yuzlab nomdagi moslamalar tayyorlangan, hayotda samarali foydalanilgan. Albatta, ushbu yogʻoch jihozlarni tayyorlash, yasash va foydalanish davrida yosh oʻsmir bolalar bevosita yoki bilvosita ishtirok etganlar, bu yoʻl bilan ularning shu sohada bilimlari takomillashtirib borilgan. Feodal tuzumi davriga kelib, buyuk davlatchilik siyosatlarini baravar rivojlantirildi, barcha sohalaridagi asbob-uskunalar, jihozlar ishlab chiqarish juda keng miqyosda taraqqiy etdi, hatto, nafis sanʼat darajasiga yetdi. Endi buyumlar va jihozlarning faqat ish bajarishga chidamliligigagina emas, balki nafis, goʻzal, chiroyli, bezakli qilib tayyorlanishiga ham jiddiy eʼtibor berildi.

Turli davrlarda har xil buyumlarning tayyorlanishi, taraqqiyoti, rivojlanishi turli xil arxeologik qazishmalar paytida topilgan ashyolar, shuningdek, ular bilan bogʻliq tavsiflar ogʻzaki va yozma manbalarda bizgacha yetib kelgan.

Yoshlarni mehnat qilishga, turli hunarlarni egallashga daʼvat qiluvchi fikrlar yozma va ogʻzaki manbalarda juda koʻp. Sharqning buyuk mutafakkirlarining qimmatbaho asarlarida bu masalaga juda katta eʼtibor berilgan. Pandnomalar, nasihatlar, oʻgitlar, hunarlar risolalari, tarixiy asarlardagi tavsiflar, nasriy va nazmiy bayonlarda, gʻazallarda, taʼlimotlarda oʻz aksini topgan.

Eramizning VIII asr oxiri IX asrning boshida yashab ijod etgan alloma Muhammad Muso al-Xorazmiyning (783-850) 20 dan ziyod asarlaridan bizgacha 10 ga yaqini yetib kelgan. Buyuk mutafakkir al-Xorazmiy butun dunyo fani taraqqiyotida yorqin iz qoldirgan olimdir. Uning «Al-jabr va almuqobala hisobi haqida», «Hind hisobi haqida kitob», «Qoʻshish va ayirish haqida kitob», «Zij» kabi asarlaridan tashqari «Asturlab yasash haqida kitob», «Asturlab bilan ishlash

haqida»gi kitoblarida o'ta murakkab o'lchov asboblari yasash va ulardan fanda foydalanish yo'llari ko'rsatilgan. Demak, o'tmish allomalari turli nazariy g'oyalar berish bilan chegaralanib qolmasdan, amalda turli asboblari, qurilmalarni o'zlari aniq hisoblar asosida yasaganlar va foydalanganlar.

Turli asboblari yasash va undan o'z ijodiy faoliyatlarida bevosita foydalanish an'anasini davom ettirgan allomalardan yana biri Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kassir al-Farg'oniy (797-865) dir. Uning «Quyosh soatini yasash haqida kitob» asari bizning davrimizgacha yetib kelgan, turli tillarga tarjima qilingan, jahonning turli kutubxonalarida saqlanmoqda.

Yoshlarga odob-axloq qoidalarini o'rgatish, ularni ilm-fan sirlarini egallashga jalb etish, savob ishlarni bajarishga yo'naltirish, ijod bilan shug'ullanishga da'vat etishga juda ko'p allomalar o'z asarlarida e'tibor berdilar. Ahmad Yugnakiy (XII asr), Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870), Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824-892), Abu Nasr Forobiy (873-950), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Abdulloh Ja'far Rudakiy (860-941), Nosir Xisrav (1004-1088), Yusuf Xos Hojib (XI asr), Maxmud Koshg'ariy (XI asr), Ahmad Yassaviy (1103-1166), Bahouddin Naqshband (1318-1389), Mirzo Ulug'bek (1394-1449), Abdurahmon Jomiy (1414-1492), Alisher Navoiy (1441-1501) kabi ko'plab jahon madaniyatining, ma'naviyatining yetakchi allomalari sifatida tan olingan mutafakkirlarimiz ham o'z asarlarida yoshlar ta'lim-tarbiyasiga, ularda insoniy fazilatlarining shakllanishiga, foydali mehnat qilishga, ilm-fanni o'rganishga jiddiy e'tiborlarini qaratganlar.

Movarounnahrning ulug' mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy o'z umri davomida ilm-fanning turli sohalariga bag'ishlangan 160 dan ziyod asarlar bitgan. Ular orasida «Nufuzli shahar aholisining mosligi», «Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola» (Risola fi-t tanbih ala asbob as-saodat), «Fazilatli xulqlar» (As-siyrat al-fozila) nomli ta'lim-tarbiyaga oid asarlari inson fazilatlarini, ta'lim-tarbiya borasidagi noyob durdonalar hisoblanadi.

Tabobat ilmining yetakchi namoyandasi sifatida tanilgan buyuk qomusiy alloma Abu Ali ibn Sino 450 dan ziyod asarlar yaratgan. Shulardan 160 dan ziyodi bizning davrimizgacha yetib kelgan bo'lib, 4 tasi bevosita ta'lim-tarbiyaga oid. SHarq mutafakkirlarining ilmiy asarlari, ijodiy meroslari milliy qadriyatlarimizning, jahon ma'naviy merosining juda ulkan qismi bo'lib, barcha sohalarida kelajak avlodga o'rganish va o'rgatishda cheksiz ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Xalqimizning tarixi, ma'naviy, madaniy o'tmishi bilan bog'liq bo'lgan tasviriy va amaliy san'atlari juda ulkan qimmatga egadir. Sharq tasviriy va amaliy san'ati tarixi jahonning shu turkumdagi ijodiy merosining salmoqli qismi hisoblanadi.

Xalqning ichki dunyosini, hissiyotlari tug'yonini biror buyum, material yoki qog'ozda bo'yoqlar, ranglar yoki o'ymakorlik asosida aks ettirish, san'atkorlik darajasida ifoda etish tasviriy va amaliy san'atning asosini tashkil etadi.

Tasviriy va amaliy san'at asarlari bizgacha turli ko'rinishlarda yetib kelgan. Xususan: Odamzodning qadimgi turar joylarida g'orlar devorlarida aks ettirilgan chizmalar, tasvirlar; turli buyumlarda loydan, toshdan, rangli materiallardan, suyaklardan, yog'ochlardan ishlangan asarlar; turli tarixiy obidalar, me'moriy binolardagi naqshlar; tarixiy yodgorliklardagi ustunlar, eshiklar; xontaxtalar, lauhlar, kursilar.

Tasviriy san'at o'ziga bir necha tarmoqlarni qamrab olgan yirik qismlardan: haykaltaroshlik, rangtasvir, grafika, ekobana, amaliy san'at turlari, mo'juz miniatyura san'ati, gravyura, foto san'ati, dizayn kabi ko'plab qismlardan iborat.

Tasvirlash san'atining ba'zi turlari paydo bo'lishi (rangtasvir, musavvirlik, miniatyura, haykaltaroshlik va boshqalar) qadimiy o'tmishga borib taqalsa, ba'zilar esa (dizayn, foto san'ati, ekobana) keyingi 100 yillikda paydo bo'lganligini ko'ramiz.

Musavvirlik, grafika san'ati Sharqda qadimdan tarqalgan bo'lib, Sulton Ali Mashhadiy, Kamoliddin Behzod, Moniy, Sodiq Bek Afshor, Ustod Gung, Ustod Jahongir, Ustod Abdulxamid, Ustod Shamsiddin, Ustod Pir Said Ahmad Tabriziy, Ahmad Bog'i Shamoliy, Shoh Muhammad Tamimiy, Qosim Ali, Xo'ja G'iyosiddin Hiraviy, Amrshoh Sabzavoriy, Mirak Naqqosh, Xalil Mirzo Shohruhiy, Sultonali Mashhadiy, Mavlono Ja'far Turbatiy kabi ko'plab yirik san'atkorlar jahon tasviriy san'atida ma'lum va mashhur ustodlar hanuzgacha e'zozlanadilar.

Ijodkorlik faoliyati, alohida qunt-e'tibor, iqtidor, salohiyat mahsuli bo'lgan tasviriy va amaliy san'at juda ko'p qirrali, sirjilodir. Demak, bu soha bilan shug'ullangan san'at namoyandalari o'ziga xos qobiliyatli barkamol insonlar bo'lib, ijodning boshqa sohalarida ham salmoqli yutuqlarga erishganlar. Masalan, shoir Javhariy sovungar, Mavlono Xavofiy tikuvchi, shoir Mavlono Mir Arg'un chodir yasovchi va bezovchi bo'lganlar. Mavlono Alisher Navoiy hazratlari ham shoir, davlat arbobi bo'lish bilan birgalikda musavvirlikda ham muvaffaqiyatga erishgan. Tasviriy va amaliy san'atning ajralmas qismlaridan hisoblangan o'ymakorlik san'ati turli materiallarga, tasvirlarni o'yib yoki bo'rttirib tasvirlash tarzida namoyon bo'ladi. 200 dan ziyod turli tarmoqlarga bo'linadigan amaliy san'at ham tarix silsilalarida taraqqiy etdi, takomillashdi, rivojlandi.

«O'ymakorlik – o'yib naqsh solish kasbi; xalq amaliy san'atining eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan (ganch, yog'och, metall, suyak, tosh va b. o'ymakorligi) naqsh yoki biror tasvirni yog'och, ganch, metall, tosh, suyak va boshqalarni o'yib, tirnab, chizib, bo'rttirib, teshib ishlanadi. O'ymakorlik namunalari bino qismlarini, uy-ro'zg'or buyumlarini bezashda, haykalchalar yaratishda keng qo'llaniladi».

Chunki hozirgi paytda respublikamizda amaliyotga joriy etilayotgan ta'lim-tarbiya tizimida, jumladan, ushbu tizimning umumta'lim bosqichida bevosita yog'och o'ymakorligidan doimiy ravishdagi o'quv mashg'ulotlari olib borilmaydi. Amaliy san'at ta'limining ko'plab turlari kabi yog'och o'ymakorligi ham o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari o'quv faoliyatida, mustaqil o'rganishlarida amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ta'lim tizimida, xususan, umumta'lim maktablarida o'quvchilarning amaliy san'at sirlarini o'rganishlarida sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etishning ahamiyati kattadir. Tasviriy va amaliy san'at bo'yicha tashkil etiladigan sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlarni o'tkazishda o'quvchilarning estetik madaniyatini shakllantirish, san'atning, go'zallikning ajoyib dunyosini o'rganishga, his qilishga bo'lgan intilishlarini, qiziqishlarini shakllantirish va tarbiyalash, o'z faoliyatini go'zal qilib tashkil etishlariga yo'naltirishni maqsad etib qo'ymoq lozim bo'ladi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etishda go'zallikni, san'atni tushunishga doir axborotlarni, ma'lumotlarni olish shakllariga ham e'tiborni qaratish kerak bo'ladi.

Bunday axborotlarni o'rganish shakllariga quyidagilar kiradi: shu sohadagi turli adabiyotlarni o'rganish, o'qituvchi-murabbiy hikoyalari, turli mavzulardagi suhbatlar, mushoiralar, o'rganilgan adabiyotlar muhokamasi, bu sohadagi turli kinofilmlar, teleko'rsatuvlar, radioeshittirishlari muhokamasi, san'at asarlari (kartinalar, buyumlar, jihozlar va boshqalar) muhokamalari, tasviriy va amaliy san'at namoyandalari bilan uchrashuvlar, suhbatlar tashkil etish, turli xil kechalar va tantanalar uyushtirish, ko'rgazmalar tashkil etish, san'at muzeylariga, tarixiy obidalariga maqsadli – rejali sayohatlar uyushtirish, san'atkorlar ustaxonalari va ish jarayoni bilan tanishish, turli to'garaklar faoliyatlarini tashkil etish va shu kabi ko'plab tadbirlar.

Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil etiladigan tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yishda o'quv-tarbiyaviy muassasaning tegishli mutaxassislikdagi pedagog kadrlar bilan, o'quv-metodik qo'llanmalar bilan, moddiy-texnikaviy ashyolar bilan ta'minlanish darajasini ham e'tiborga olmoq lozim. O'quv-tarbiya muassasasi pedagogik kengashining qarori bilan tegishli ta'minot mavjud bo'lganida, turli yo'nalishlardagi tadbirlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning ko'pchilik an'anaviy shakllari o'zining ta'limiy-tarbiyaviy zaxiralarini sarflab bo'ldi, ular yangi zamon talablariga javob bera olmay qolganligi tufayli hozir keng ko'lamda qo'llanilmaydi, ularning o'rniga yangilari paydo bo'lmoqda. Hozirgi paytda keng qo'llanilayotgan ta'limiy-tarbiyaviy ishlarning eng muhimlaridan biri to'garaklar hisoblanadi.

To'garaklar maktab, maktabdan tashqari muassasalar pedagogik kengashi va ma'muriyati qarori bilan qo'shimcha dars soatlarini ajratish sifatida tashkil etiladi. To'garaklar mashg'ulotlarida o'quvchilarning ma'lum yo'nalishdagi qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy faoliyatlarini faollashtirish nazarda tutiladi.

Tasviriy va amaliy san'atdan tashkil etiladigan to'garaklarning asosiy vazifasi o'quvchilarga badiiy yo'nalishda beriladigan bilimlar ko'lamini kengaytirish, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish va takomillashtirish, ijodiy faoliyatini, tarbiyalanishini oshirishdir.

Tasviriy va amaliy san'at bo'yicha tashkil etiladigan maktabdan va sinfdan tashqari ishlarda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalardan biri o'quvchilarni ijodkorlik faoliyatiga yo'naltirishdir. Ijodkorlik his-tuyg'usi yaqqol seziladigan, mustaqil fikrlay va ishlay oladigan kishigina o'ziga xoslikka, erkinlikka ega bo'ladi va o'xshashi yo'q, bir-birini takrorlamaydigan asarlar yarata olishi mumkin. Ijodkorlik kishi mustaqil faoliyatining va faolligini oliy shaklidir.

Insonning ijodkorligi uning mahsulining ijtimoiy ahamiyati va yangiligi, sofliigi darajasi bilan o'lchanadi. Ijodiy jarayonning bir qancha o'ziga xos jihatlari uni oddiy faoliyatdan ajratib turadi:

a) Muammoning qo'yilishi, ya'ni yog'och o'ymakorligi to'garaklarida yasalishi lozim bo'lgan buyumning ahamiyati, birinchi marotaba qilinmoqdami yoki ilgari ham bajarilganmi, ushbuni belgilab olish, agar ilgari shu mazmundagi buyurtmalar bajarilgan bo'lsa, ushbu buyurtma nimasi bilan ilgariyillardan farq qiladi;

b) ishning ijodiyiligini, muammoliligini ko'ra olish;

v) o'quvchidagi zaruriy bilimlarni faqat takrorlamasdan, yangi bilimlar o'rganishini talab eta olish, borlarini esa butunlay safarbar etishi;

g) o'qituvchi - to'garak rahbari bolalarga topshiriq berishda, bolalarning hayotiy tajribasini nazarda tutmog'i lozim.

Biz quyida yog‘och o‘ymakorligi to‘garaklarida o‘quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etishning diqqatga sazovor tomonlarini bayon etmoqchimiz.

Tasviriy va amaliy san‘at, shuningdek, yog‘och o‘ymakorligi to‘garaklari, odatdagi sinfdars mashg‘ulotlaridan o‘quvchilarning mustaqil faoliyatlarini yo‘lga qo‘yishda keng imkoniyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Dars mashg‘ulotlaridan to‘garak mashg‘ulotlari o‘zining quyidagi qator belgilari bilan farq qiladi:

Birinchidan, to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quv mavzulari qat‘iy ish rejasiga qarab emas, o‘quvchilarning qiziqishlariga, qobiliyatiga qarab tanlanadi.

Ikkinchidan, o‘quvchilar guruhleri, maktablardagidek barcha teng yoshdagi bolalar aniq sinflarga majburiy biriktirilishiga qarama-qarshi o‘laroq, o‘quvchilarning hohishlari turiga, qiziqishlariga qarab guruhlar shakllantiriladi.

Uchinchidan, to‘garaklarda qatnashish-qatnashmaslik masalasi mutlaqo ixtiyoriy, o‘quvchilar hohlagan vaqtlarida bir to‘garakdan ikkinchi to‘garakka o‘tib ketishlari, to‘garaklardan chiqib ketishlari, ba‘zi hollarda esa 1-2 ta to‘garaklarda baravariga qatnashishlari mumkin. Masalan, ijodkorlik-sport (suzish), modelchilik-havaskorlik, tasviriy va amaliy san‘atme‘morchilik kabilar.

To‘rtinchidan, to‘garak rahbari mashg‘ulotlarni olib borish jarayonida, mashg‘ulotning tuzilishida bevosita qat‘iy dars tuzilishi talablariga o‘xshash kirish, tashkiliy qism, asosiy qism - yangi mavzu bayoni, yakuniy qism - mavzuni mustaxkamlash kabilarga rioya qilmasligi mumkin.

Albatta, bu hol har bir to‘garak rahbari mashg‘ulotni hohlaganicha o‘tishi yoki o‘tmasligi mumkin degan fikrni keltirib chiqarmaydi, faqat mashg‘ulotning ba‘zi qismlarini, masalan, amaliy mashg‘ulotlar qismini yoki namoyish etish qismini yoki yasalgan buyumlar va boshqalar tahlilini chuqurlashtirib, kengaytirib berish mumkin deb tushunmoq kerak.

Beshinchidan, to‘garak mashg‘ulotlari ma‘lum sohani chuqur o‘rganishga mo‘ljallangan, o‘quvchilar to‘liq mustaqil harakatlanishga, erkinlikka, mashg‘ulot davomida bevosita amaliy harakatlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ya‘ni dars mashg‘ulotlaridagidek to‘liq o‘qituvchi yakka hokimligi ostida o‘tmaydi, o‘quvchilar faolligi to‘liq ta‘minlanib, o‘qituvchi kuzatuvchi-maslahatchi rolini bajarishi mumkin, xolos.

Oltinchidan, yog‘och o‘ymakorligi to‘garagi qatnashchilari berilgan topshiriqlarni bir mashg‘ulotda bajara olmay qolsalar yoki 2-3 mashg‘ulotga mo‘ljallangan topshiriqni mo‘ljallanganidan oldinroq bajarib ulgursalar, boshqa bolalarning ushbu mavzuga yetib kelishini kutib o‘tirmasdan bevosita yangi mavzuni o‘rganishga o‘tib ketaverishlari mumkin. To‘garak mashg‘ulotlari bevosita belgilangan sinfxonalardagina emas, balki ijodiy ish buyurtmalarini bajarish joylarida, binolarda, me‘moriy obidalarda, muzeylarda va boshqa joylarda ham o‘tkazilishi mumkin.

Yog‘och o‘ymakorligi to‘garaklari bolalarning qiziqishlari, bilimlari hajmi, ko‘nikmalarining shakllanganligi darajasiga qarab, asosan 3 bosqichda (guruhda) tashkil etilishi mumkin.

1. Kichik guruh (9-12 yoshdagi bolalar uchun);
2. O‘rta guruh (12-14 yoshdagi bolalar uchun);
3. Katta guruh (15-17 yoshdagi bolalar uchun) (4, 245 b.).

Albatta, yuqorida keltirilgan guruhlardagi o'quvchilarning yoshi qat'iy tartibda, faqat «mazkur yoshdagi bolalar o'qishi shart, boshqasi mumkin emas» degan mazmunda belgilanmaydi.

Kichik guruhdagi bolalar o'zlashtirish sifatiga, ko'lamiga qarab, navbatdagi bosqichlarga belgilangan vaqtdan ertaroq o'tib o'qishlari ham mumkin. To'garakda mashg'ulotlarni olib borishda har bir guruh uchun o'quv dasturi, mashg'ulotlar rejasi tuzib olinadi, metodik kengashda muhokama etilib, mas'ul rahbarlar tomonidan tasdiqlanadi.

Kichik guruhda yog'och o'ymakorligi bo'yicha quyidagi mavzularni o'rganishni tashkil etish mumkin.

1. Hayotimizda yog'ochlarning tutgan o'rni, yog'och o'ymakorligi haqida.
2. Xavfsizlik qoidalari (yong'in, elektr, gaz va sanitariya-gigiena qoidalari).
3. Naqshlar, ularning turlari, elementlari, oddiy, hoshiya, o'simliksimon, pargori, geometrik naqshlar.
4. Yog'ochlarni o'yishga tayyorlash, rejalash, naqshlarni belgilash.
5. Turlicha chuqurlikda o'yish asboblari, ularning tuzilishi.
6. Yog'och o'ymakorligi uchun zaruriy materiallar tayyorlash;
7. Ish o'rniga qo'yilgan talablar - yorug'lik, havo, namlik.
8. Yog'och o'ymakorligi buyumlari, tavsifi.
9. Yog'ochlarga duradgorlik ishlovi brish: quritish, rejalash, arralash, kesish, teshish, birlashtirish, pardozlash.
10. Yog'och o'ymakorligi bajariladigan taxtalarni o'yishga tayyorlash, ivitish, quritish, yog' shimdirish, rejalash, yelimlab birlashtirish dastlabki o'yish ishlarini bajarish va chakichlash.
11. Sodda buyumlarga oddiy tuzilgan naqshlarni o'yish. Yog'och o'ymakorligi maktablari.
12. Xiva, Urganch-Xorazm maktablari, ish uslublari; Toshkent maktabi; Farg'ona maktabi; Samarqand, Buxoro va boshqa maktablarning o'ziga xos ish uslublari.
13. Bajarilgan ishlardan namunalar tanlab tahlil qilish, ko'rgazmalar tashkil etish.

To'garaklarda bolalarning ijodiy faoliyatini tashkil etishda ularda estetik tarbiya elementlarining shakllanishiga ham e'tiborni qaratish lozim. O'quvchilarning naqshlarni yod olishlarida, tasvirlashlarida ularning ijodkorlik qobiliyatlari, kuzatuvchanliklari, mulohazakorlik va sermushohadaliklari, fikrlashlari, nafis tuyg'ulari taraqqiy etib boradi. Narsalar va hodisalar to'g'risidagi bilimlari kengayadi, amaliy san'atga, go'zallikka, hayotga qiziqishlari kuchayadi, tabiat, olam, jamiyat, inson go'zalliklarini his eta oladigan, qalbi ham, hayoti ham go'zal insonga aylanib boradi. Yog'och o'ymakorligini o'rgatishda bolalarning ruhiy va yosh hususiyatlarini o'qituvchi va murabbiy usta mutlaqo unutmazligi lozim. Bolalarning rivojlanishi hususiyatlariga ko'ra, xotiraning kuchi, esda saqlash va esga tushirish tezligi, jismoniy rivojlanishi, masalan, yuk ko'tara olish, bolg'a (bosqon – kiyanka) bilan chaqichni, iskanani ura olish quvvatini mo'tadillashtira olishi, ko'rgan, eshitgan, o'qigan axborotlarni eslab, qayta yodga tushirishi, o'z faoliyatida qo'llay olishi juda muhim ahamiyatga egadir. O'quvchilarning eslash va yodga tushirish hususiyatlari turli ustalarning ijodiy ish usullari bilan takomillashtirib boriladi. Bunday usullarning hech bo'lmaganda asosiylarini o'zlashtirib olish, naqshlarning elementlarini yasash va birlashtirib, butun kompozitsiyalar, yirik tasvirlar chiqara olishlari uchun o'quvchilarning yosh hususiyatlari va qobiliyatlarini hisobga olish joizdir.

Ayniqsa, bolalarning turli yosh davrlarida, bir yosh davridan ikkinchi davrga o'tish davrlarida uning ruhiyatida, rivojlanishida bo'ladigan o'zgarishlarni ham hisobga olish muhimdir.

Turli topshiriqlarni har bir yosh davriga moslab berib borish e'tiborga loyiq omildir.

Masalan, bolalik, o'smirlik va o'spirinlik davrlarida va bu davrlarning biridan ikkinchisiga o'tish davrida bolalar xarakterida, ruhiy holatida sezilarli o'zgarishlar bo'ladi. Murabbiy, o'qituvchi, usta bu o'zgarishlarni ko'ra olishi zarur.

O'qituvchi – murabbiy, usta o'quvchilarning yosh, shaxsiy, ruhiy hususiyatlarini hisobga olib ularga topshiriqlar berib borishda dastlab tayyor andazalar berishi ham mumkin, ammo, tayyor andazalarni doimiy ravishda berish mumkin emas, chunki andazalar bilan doimiy ishlash bolalarni ijodiy mushohadadan, mustaqil fikrlashdan chalg'itadi. Masalan, yog'och o'ymakorligida, yog'ochlarni o'ymakorlik ishlovi berishga tayyorlashda usta tayyorlash usulini ko'rsatib, tayyor buyumlar (xom-ashyo) namunasini namoyish qiladi. O'quvchi esa namlash, quritish, silliqlash, o'lchash, kesish, arralash va yog' shimdirish ishlarini o'zlari bajarishlari lozim. O'lchash, rejalash ishlarini bajarishda usta butun yumushlarni doskaga bir marotaba tsirkul, chizg'ich, pargor, ip bilan bajarib ko'rsatadi. O'quvchilar esa har biri o'z oldidagi namunalarga o'zlari o'lchash, rejalashni bajaradilar. O'qituvchi, usta esa kuzatuvchilik vazifasiga kirishadi.

Yog'och o'ymakorligi bo'yicha olib boriladigan to'garaklar mashg'ulotlarida bolalarning zehni, idroki, xotirasi, eslashi, qiziqishlarining bosqichma-bosqich rivojlanib va takomillashib borishini ta'minlash zarur. Zehn, idrok etish kishi miya faoliyatining o'zgaruvchanlik qobiliyati bo'lib, ijodkorlikda asosiy o'rin tutadi va turli fantaziyalarning kelib chiqishiga poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Bolalarning xayollarini, fikrlashlarini, diqqatini ishlov berilayotgan buyumga qarata olish, unga halaqit beruvchi turli omillarni kamaytirish yaratilayotgan san'at asarining yuqori sifatli chiqishining asosiy garovlaridan hisoblanadi. Albatta, bu omilni usta yoki to'garak rahbari hamisha nazarda tutmog'i lozim.

Yog'och o'ymakorligi san'ati namunalarini yaratishda ustalar va bolalarning ijodiy faoliyati imkoni boricha mustaqil, erkin harakatga yo'naltirilishi lozim. Bolalardagi erkinlik ruhiyati, hissiy sezgirlik, ko'chirmakashlikdan chetlashish turli qoliplanmagan, chegaralanmagan, ko'zda tutilmagan yangi ijod mahsullarining yaratilishiga olib kelishi mumkin. Bolalarning ba'zida erkin fikrlashlari salbiy, qo'pol, odatdan tashqari namunalari yaratishga, yaroqsiz mahsulotlar tayyorlashga olib kelsa-da, bu holdan qo'rqmaslik lozim. O'qituvchi yoki usta bu holning sabablarini, tushkunlik kayfiyatining kelib chiqish sabablarini sinchiklab aniqlab, xatolarini tuzatmog'i, bu holdan chiqish uchun zaruriy tavsiyalar bermog'i lozim.

Yog'och o'ymakorligida o'quvchilarning erkin fikrlashlarini, harakatlarini, mustaqil faoliyatlarini tashkil eta olish «Bolaning bola bo'lishi» huquqini yuzaga chiqarolsagina, tasviriy san'at ta'limi o'z maqsadlarining muhimlaridan biriga erishgan hisoblanadi.

## REFERENCES

1. Abduqodirov A. Ulug'bekning Samarqanddagi obidalari. - T.: O'zbekiston, 1969. - 21 b.
2. Ahmedov M.B. Yog'och o'ymakorligi (Dastur). –T.: TDPU, 2000, 12 b.
3. Ahmedov M.B. Yog'och o'ymakorligi. –T.: Iqtisod-moliya, 2007, 108 b.
4. Булатов С.С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. -Т.: Мехнат, 1991, 384 б.



5. Bulatov S.S., Ashurova M.O. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. –T.: Qomuslar Bosh tahr. 1992, -48 b.
6. Ведение инаучного исследования по педагогике (Под.ред. В.И.Журавлева). –М.: Просвещение, 1988, -240 б.
7. Гаджимуродов С.М. Трудовое обучение и профориентация школьников в центрах народных художественных промыслов. //Школа и производство. 1981, №4, С-25-27.
8. Изобразительное искусство в школе. (Виноградова Г.Г). –М.: Просвещение, 1967, -176 б.
9. Изучение личности школьников учителем. (под.ред. З.И.Васильевой и др.). - М.: Педагогика, 1991, -136 б.
10. Mazur V.A. O'zbekiston hunar-ta'lim o'quv yurtlarida milliy badiiy kasblarga o'rgatishning didaktik shart-sharoitlari. Ped. fan. nomz. diss...1991, –145 b.
11. Mo'minov I.M. Temuriylar davri O'rta Osiy san'atining paydo bo'lishi va taraqqiy etish tarixiy ildizlari haqida. (Tanlangan asarlar, 2 tomlik.) T.: - Fan, 1969, -48 b.
12. Основы художественного ремесла. (Под.ред. А.Барадулина). М.: Просвещение, 1979, -320 с.
13. Сейтешев А.П. Пути профессионального становления учащейся молодёжи. –М.: Высш. шк. 1988, -336 с.
14. Usmonov O. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. –T.: Fan, 1977, -149 b.
15. Чижикова Л.П. Виды декоративно-художественного оформления изделий. //Школа и производство журн. 1991, №9 -41-45 с.
16. Hasanov R. Maktablarda tasviriy san'at mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llari. –T.: O'qituvchi, 1986, -96 b.